



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

— Tursunov Akmal Raxmatullayevich¹ —

¹NavDKI mustaqil tadqiqotchi

E-mail: akmal_tursunov_1971@mail.ru

tel:+ 998934373711

YASAMA SO'ZNING NUTQQA XOSLANISHI

Annotatsiya: Ushbu maqolada morfem-morfologik sathni faqat ifoda reja maqomi bilan chegaralash ushbu sathga xos mazmun birliklari, so‘z shakllari to‘g‘risida fikr yuritilgan. Tilshunoslikda yangilik sifatida tavsiya etilayotgan ayrim qarashlarga ko‘ra, morfem-morfologik sath birliklari faqat tashqi strukturadagina mavjud bo‘lib, tub semantika sathiga tusha borgan sari ularning mazmun mohiyati o‘zgarib borishi yoritib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: sath, morfem –morfologik, so‘z shakllari, semantika, paradigma, o‘xshash.

Приспособление словаобразования к речи

Аннотация: В данной статье рассматривается разграничение морфемо-морфологического уровня только со статусом выразительного тела



на этом уровне с точки зрения конкретных единиц содержания, словоформ, раскрывается их сущность.

Ключевые слова: продажи, морфема - морфология, словоформы, семантика, парадигма, подобное.

Adoptation of artificial words to speech

Annotation: This article examines the differentiation of the morphemo-morphological level only with the status of the expressive body at this level from the point of view of specific units of content, word forms, and reveals their essence.

Keywords: sales, morpheme - morphology, word forms, semantics, paradigm, the like

Kirish. Ma'lumki, paradigma paradigmatika tushunchasining "lingvistik sistemadagi to'da (klass)" ma'nosida qo'llanila boshlashi tilshunoslikning ufqlarini kengaytiradi, muayyan belgi asosida qarama-qarshilik va umumiylit hosil qiladigan, o'zaro shartlangan, biri ikkinchisini taqozo etadigan biror sathga tegishli birliklarning "til onginin tiniq nuqtalari" (L.V.Shcherba)da turg'un, barqaror aloqalar hosil qilish qonuniyati kashf etilganligi endi paradigma doirasida yangi umumlashmalarga yo'chdi, qonuniy assotsiativ aloqalarni belgilashga da'vat etdi.

Shu qonuniyatga ko'ra, har bir assotsiativ -paradigmatik maydon tashkil etuvchilar (jumladan, morfem ~ morfologik paradigma a'zolari) ma'no-vazifa jihatidan bir xil, yorliq tusidagi xususiyat kasb etgan hodisalar to'dasi emas, balki zanjirdagi bir xalqa harakatga kelsa, boshqalari ham tabiiy yo'sinda u yoki bu darajada harakatga keladigan uzluksizlik va alohidalik jarayoni birliklari bo'lib, har bir maydon til sistemasidagi avtonom sistema sifatida amal qiladi, boshqa yondosh maydonlar bilan turli darajadagi iyerarxiya munosabatlariga kirishadi. Demak, paradigma, paradigmatika tadqiqotchilar tomonidan o'ylab chiqarilgan hodisa bo'lmay, inson ongi va tafakkurida kezayotgan va kechishi mumkin bo'lgan tabiiy jarayonlarni, tasavvurlar va



umumlashmalar tizmasining turli ko‘rinishdagi sodda va murakkab harakatlarini aks ettiradi.

Asosiy qism (Main body). Tilshunoslikda yangilik sifatida tavsiya etilayotgan ayrim qarashlarga ko‘ra, morfem-morfologik sath birliklari faqat tashqi strukturadagina mavjud bo‘lib, tub semantika (“glubinnaya semantika”) sathiga tusha borgan sari ularning mohiyati ham yo‘qola boradi; xususan, tub semantikada so‘z turkumlari amal qilmaydi.

Ye. S. Kubryakova ushbu qarashlarga munosabat bildirib, ularning juda ko‘p sabablarga binoan asossizligini ta’kidlaydi: formal morfologik farqlar deyarli barcha hollarda ma’no farqlanishini olib boradi, ular yo ma’no, yo vazifa farqlanishi uchun signaldir. Olimaning maxsus qayd etishicha, hozir keng rasm bo‘lgan shakl va mazmun nomuvofiqligi (assimetriyasi)ni mutlaq darajaga ko‘tarish mumkin emas. Negaki, shakldagi farqlanish (bu farqlanish o‘xhash ma’noni yuzaga keltirganda ham) mazmunning turlicha talqin topishi uchun belgi bo‘lib xizmat qiladi, mazmunning ifodalanish usuli, birinchi navbatda, uning (mazunning) o‘zi uchun ahamiyatlidir[1-16].

A.A.Reformatskiy til sathlari paradigmatisasi munosabatida morfologiyaning o‘rni haqida fikr yuritib uni barcha boshqa sathlarni ushlab turadigan “o‘zak”, “asos” (“kostyak”)ga o‘xshatgan edi. Uning fikricha, “morphologiya” til kengligi” (“yazkovoye prostranstvo”)ning markazidir. Va tilning tabiatini bilish uchun, dastavval, uning morfologiyasini tushunmoq kerak”. Nafaqat ikki yoqlama birliklar, hatto fonologik sath birligi - bir yoqlama birlik fonema ham “faqat morfologik elementlarning nihoyatda murakkab o‘yinlari fonida aniqlanadi: ular, (fonemalar) ongdan chuqur joyda yashiringandir, ularga faqat morfologiya orqali yaqinlashish mumkin, bu yo‘l esa sintagmatika (sintaksis) sohasi orqali o‘tadi”[3-19].

Ko‘rinadiki, morfem -morfologik sathni faqat ifoda plani maqomi bilan chegaralash ushbu sathga xos mazmun birliklarini, so‘z shakllari, so‘z to‘dalari orqali yuzaga chiqadigan ma’no-vazifa qiymatini rad etishga olib keladi. Holbuki,



mazkur sathda ham mazmun va shaklning har bir sinxron bosqichda nisbat muvofiqligi (simmetriyasi)ga asoslangan paradigmatic qurshovlari amal qiladi. Ana shu qurshovlar doirasida bosh paradigma so‘z turkumlari sistemasi paradigmatisidir. Tilshunoslik tarixida so‘z turkumlarini o‘zaro qiyoslash, nisbatlash uchun ob’ektiv imkoniyatning mavjudligi e’tirof etilgan bo‘lsa-da, amalda so‘zlarni, umumiylar belgilar asosida guruhlashga emas, balki farqli belgilar asosida so‘z turkumlariga ajratishga ko‘proq ahamiyat berilgan. Bir so‘zning umumiylar belgilari lug‘aviy, morfologik, sintaktik, so‘z yasalishi kabi nuqtai nazardan qaralishiga olib keladi.

So‘z turkumlari sistemasi paradigmasi konkret so‘z turkumlarini qamrab oladigan tushunchadir. Agar so‘z turkumlari va ularga xos kichik paradigmalar (masalan, otlarda son, egalik, kelishik kategoriysi) nisbatan quyi bosqich umumlashmalar sirasiga kirsa, qo‘yi turkumlari sistemasi paradigmasi ana shu quyi bosqich umumlashmalarga tayanadigan, ularni o‘zaro munosabatda olib qaraydigan yuqori bosqich paradigmasisidir. Alovida so‘z turkumlariga xos belgilar qay darajada ob’ektiv bo‘lsa, yuqori bosqich paradigma doirasidagi belgilar ham shu darajada ob’ektivdir.

Har bir tilda, jumladan, o‘zbek tilida so‘z turkumlariga tegishli tasavvur (predmetlik va uning xossalari: harakat, holat, miqdor, tartib, belgi, shuningdek, munosabat-aloqa tushunchasi), tarixan shakllangan va avloddan avlodga o‘tib kelayotgan ijtimoiy-ma’naviy mahsuldir.

Shu sababdan, so‘z turkumlarining an’anaviy tasnifi borliqning o‘zida chuqur asosga ega, chunki so‘zlarning to‘dalari, bilvosit bo‘lsa-da, turli-ob’ektlar (predmet va uning xossalari)ning tilda ma’lum yo‘sinda aks etishini ko‘rsatadi. Ayni ana shu asosga ega bo‘lish Ye. S.Kubryakova va V.G.Gakning ta’kidlashicha, “So‘z turkumlari tasnifida bir necha o‘lchovlarga tayanish maqbul emasligini uqtiruvchi nazariyalarga qarama-qarshi o‘laroq, an’anaviy tasnifning kuchli va ijobiy tomonini tashkil qiladi[5-18]. So‘z turkumlari sistemasi paradigmasi boshqa guruh hosil qila olmaydigan yirik paradigma bo‘lsa, alovida



so‘z turkumi va unga xos paradigmalar o‘rtacha, kichik, eng kichik paradigmalar ko‘rinishidadir.

Yirik paradigma umumlashgan (invariant) birlik bo‘lsa, keyingi ko‘rinishdagi paradigmalar ana shu umumlashgan birlikning turli darajadagi variantlaridir. Shunisi ham borki, eng kichik, o‘rtacha paradigmalar o‘ziga nisbatan yuqori turuvchi paradigma tarkibiga tashkil etuvchi sifatida o‘rnasha boradi.

Xulosa (Conclusion). So‘z yasalish hodisasi va bunda qatnashuvchi til birliklarning nutqqa aloqasi yo‘q, ular “nutqqacha” bo‘lgan hodisalar, nutqqacha mavjud til birliklaridir. Yuqorida tahlil qilib o‘tilgan morfem-morfologik paradigmning umumiyligi belgilari xususida hamda ularning maxsus ko‘rinishlarini tavsif etish keyingi vazifalardan biri bo‘lib hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Hojiyev A. O‘zbek tili morfologiyasi, morfemikasi, so‘z yasalishining nazariy masalalari.- T.: Fan, 2010.
2. Кубрякова Е.С. Части речи в ономасиологическом освещении. М., 1978, стр.-84.
3. Серебренников Б. А. Основные линии развития падежной и глагольной систем в уральских языках. М., 1964, стр.9.
4. Bu haqda qarang: Принципы описания языков мира. М., 1976, стр.79.
5. Боровков А.К. Агглютинация в тюркских языках. “Морфологическая типология и проблема классификации языков”. М.,- Л., 1965, стр. 117.
6. Кубрякова Е.С. Части речи в ономасиологическом освещении. М., 1978, стр.-89.